MASHRAB G‘AZALLARIDA FE’LLARNING QO‘LLANILISHI

Yuldasheva Gulnoz,
RANCH universtiteti, Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: **Jumamuratova Sevara,**
Urganch RANCH texnologiya universtiteti, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18698618

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Mashrab ijodiga mansub “Dardi sirimni kavlama”, “Zulfu siyohsini ko‘rung” hamda “O‘zginam” g‘azallari asosida fe’llarning badiiy, semantik va uslubiy qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida fe’llarning lirik qahramon ruhiy holatini, ishqiy va tasavvufiy kechinmalarni ifodalashdagi o‘rni yoritiladi. G‘azallarda buyruq-istak maylidagi fe’llar, holat va harakat fe’llari, shuningdek, fe’llarning zamon va nisbat shakllari orqali oshiqning iltijosi, iztirobi, fidoyiligi hamda ma’rifat yo‘lidagi ruhiy kamoloti badiiy jihatdan chuqur ifodalanganligi tahlil qilinadi. Fe’llarning takroriy va maqsadli qo‘llanilishi g‘azallarning hissiy ta’sirchanligini oshirib, Mashrab poetikasiga xos dramatizm va tasavvufiy falsafani yuzaga chiqarishi ochib beriladi. Tahlil jarayonida Mashrab g‘azallarida fe’llar nafaqat grammatik birlik, balki asosiy badiiy-estetik vosita sifatida muhim o‘rin tutishi ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *grammatik birlik, buyruq-istak fe’llari, badiiy estetik, fe’l shakllari, holat fe’llari, harakat fe’llari.*

Аннотация. *В данной статье на основе газелей Машраба «Dardi sirimni kavlama», «Zulfu siyohsini ko‘rung» и «O‘zginam» анализируется художественное, семантическое и стилистическое употребление глаголов. В процессе исследования раскрывается роль глаголов в выражении душевного состояния лирического героя, а также любовных и суфийских переживаний. В газелях посредством глаголов повелительно-желательного наклонения, глаголов состояния и действия, а также временных и залоговых форм глаголов художественно и глубоко передаются мольба, страдание, самоотверженность влюблённого и его духовное совершенствование на пути познания. Повторное и целенаправленное использование глаголов усиливает эмоциональную выразительность газелей, выявляя присущие поэтике Машраба драматизм и суфийскую философию. Результаты исследования показывают, что в газелях Машраба глаголы выступают не только как грамматическая единица, но и как важнейшее художественно-эстетическое средство.*

Ключевые слова: *грамматическая единица, глаголы повелительно-желательного наклонения, художественно-эстетический, глагольные формы, глаголы состояния, глаголы действия.*

Abstract. *This article analyzes the artistic, semantic, and stylistic use of verbs based on Mashrab’s ghazals “Dardi sirimni kavlama,” “Zulfu siyohsini ko‘rung,” and “O‘zginam.” The study highlights the role of verbs in expressing the psychological state of the lyrical hero, as well as amorous and Sufi experiences. Through verbs in the imperative–optative mood, verbs of state and action, and various tense and voice forms, the ghazals artistically and profoundly convey the lover’s supplication, suffering, devotion, and spiritual maturation on the path of enlightenment. The repetitive and purposeful use of verbs enhances the emotional impact of the ghazals, bringing forth*

the dramatism and Sufi philosophy characteristic of Mashrab’s poetics. The findings demonstrate that in Mashrab’s ghazals, verbs function not only as grammatical units but also as essential artistic and aesthetic devices.

Keywords: *grammatical unit, imperative–optative verbs, artistic and aesthetic, verb forms, stative verbs, action verbs.*

Kirish. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida Mashrab ijodi o‘zining teran falsafiy mazmuni, tasavvufiy ruhiyati hamda kuchli hissiy ta’sirchanligi bilan alohida o‘rin tutadi. Uning g‘azallarida ishq, iltijo, iztirob va ma’rifat yo‘lidagi ruhiy kamolot lirik qahramon kechinmalari orqali yuksak badiiy darajada ifodalanadi. Mazkur jarayonda til birliklarining, xususan, fe’llarning o‘rni beqiyosdir. Fe’llar nafaqat grammatik ma’no ifodalovchi vosita, balki badiiy tafakkurni yuzaga chiqaruvchi muhim estetik unsur sifatida xizmat qiladi. Mashrab g‘azallarida fe’llarning buyruq-istak mayli, holat va harakat fe’llari, shuningdek, zamon va nisbat shakllari orqali oshiqning ruhiy holati, ichki kechinmalari hamda tasavvufiy qarashlari chuqur va ta’sirchan tarzda ifodalanadi. Fe’llarning takroriy, maqsadli va kontekstga mos qo‘llanilishi g‘azallarga dramatik ruh bag‘ishlab, shoir poetikasining o‘ziga xosligini namoyon etadi. Shu bois Mashrab ijodida fe’llarning badiiy, semantik va uslubiy xususiyatlarini tadqiq etish mumtoz adabiyot tilini chuqurroq anglash hamda shoir mahoratini ilmiy asosda yoritish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazariy jihatdan olib qaraganda, fe’l tilshunoslikda harakat, holat, jarayon va mavjudlikni ifodalovchi asosiy so‘z turkumlaridan biri hisoblanadi. U predmetning yoki shaxsning faoliyati, ichki kechinmasi, ruhiy holati hamda voqea-hodisalarning kechishini bildiradi. Fe’llar grammatik kategoriyalarga ega bo‘lib, ular zamon, mayl, nisbat, shaxs-son va bo‘lishli–bo‘lishsizlik shakllarida namoyon bo‘ladi. Mayl kategoriyasi fe’lning imkoniyat darajasini kengaytiradi. [1.:234]

Adabiyotlar tahlili. Mashrab ijodi o‘zbek mumtoz adabiyoti doirasida falsafiy-tasavvufiy mazmuni, kuchli hissiy ta’siri hamda badiiy tilining serqirraligi bilan alohida e’tiborga loyiq. Shoir g‘azallarining mazmun-mohiyatini ochishda leksik va grammatik birliklarning, xususan, fe’l turkumining o‘rni muhim hisoblanadi. Shu bois Mashrab asarlarining til xususiyatlarini o‘rganish masalasi adabiyotshunoslik va tilshunoslik tadqiqotlarida muayyan darajada yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning bir qator an’anaviy va zamonaviy metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik bazasini lingvopoetik, semantik-tahliliy va tavsifiy metodlar tashkil etadi. Xususan, Mashrabning “Dardi sirimni kavlama”, “Zulfu siyohsini ko‘rung” hamda “O‘zginam”

g‘azallari matnlari asosiy tadqiqot obyekti sifatida tanlanib, ulardagi fe’llar kontekstual jihatdan tahlil qilindi. Lingvopoetik metod yordamida fe’llarning badiiy-estetik vazifasi, lirik qahramon kechinmalarini ifodalashdagi roli aniqlandi. Semantik tahlil orqali fe’llarning ma’no nozikliklari, harakat va holatni ifodalash imkoniyatlari ochib berildi.

Shuningdek, tavsifiy metod asosida fe’llarning grammatik shakllari — buyruq-istak mayli, shart mayli, ravishdosh va sifatdosh shakllari, zamon va nisbat kategoriyalari izchil tasniflandi. Qiyosiy yondashuvdan foydalanib, fe’llarning turli g‘azallarda takroriy va maqsadli qo‘llanish holatlari aniqlanib, ularning Mashrab poetikasidagi umumiy va xos jihatlari belgilandi.

Tahlil va natijalar. O‘zbek tilshunosligida fe’l turkumi va uning grammatik kategoriyalari masalasi Sh. Rahmatullayev, N. Erkaboyeva kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Jumladan, Sh. Rahmatullayev hozirgi o‘zbek adabiy tilida fe’llarning zamon, mayl, nisbat hamda vazifa shakllarini tizimli ravishda izohlab, ularning nutqdagi funksional imkoniyatlarini ochib beradi. N. Erkaboyevaning ishlarida esa fe’llarning semantik va grammatik xususiyatlari, shuningdek, badiiy matndagi o‘rni haqida muhim nazariy xulosalar berilgan.

Ishq o‘tiga o‘rtanib devona bo‘lgan o‘zginam,
Kuya-kuya kul bo‘lub biryona bo‘lgan o‘zginam.

“O‘zginam” radifli g‘azalning birinchi baytida **“o‘rtanib”, “bo‘lgan”, “kuya-kuya”, “bo‘lub”** kabi fe’llar ishtirok etgan bo‘lib, ushbu fe’llarda fe’lning vazifa shakllaridan ravishdoshning (-a,-ib) qo‘shimchalari, sifatdoshning (-gan) qo‘shimchasi qo‘llangan. Baytda fe’llar o‘tgan zaman shaklini namoyon qilgan. Sintaktik jihatdan esa fe’llar aniqlovchi va hol vazifasini bajargan. Fe’llarning bu xususiyatlari baytning mazmunini ochib berishda va ta’sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Oshiqi diydorman, ey yor, bilmassan magar,
Mansuri Hallojdek dorga osilgan o‘zginam.

Ushbu baytda **“bilmassan”** va **“osilgan”** fe’llari qo‘llangan. “Bilmassan” fe’li fe’lning bo‘lishsiz shakli bo‘lib, hozirgi-kelasi zamonni ifodalaydi hamda shaxs-son qo‘shimchasini (-san) olgan. “Osilgan” fe’li esa sifatdosh shaklida bo‘lib, -gan qo‘shimchasi yordamida hosil qilingan va o‘tgan zamon ma’nosini bildiradi. Sintaktik jihatdan “bilmas-san” fe’li kesim, “osilgan” fe’li esa aniqlovchi vazifasini

bajargan. Ushbu fe’llar orqali oshiqning holatini anglamaslik va ishq yo‘lidagi fidoyilik mazmuni kuchli ifodalangan.

Kuya-kuya kul bo‘lub dunyodin o‘tkan bormukin,
Ishq yo‘lida ming o‘lub, ming bir tirilgan o‘zginam.

Mazkur baytda **“kuya-kuya”**, **“bo‘lub”**, **“o‘tkan”**, “**o‘lub”, “tirilgan”** fe’llari ishtirok etgan. “Kuya-kuya”, “bo‘lub”, “o‘lub” fe’llari fe’lning ravishdosh shakli bo‘lib, (-a, -ub) qo‘shimchalari orqali yasalgan va harakatning davomiyligi hamda ketma-ketligini bildiradi. “O‘tkan” va “tirilgan” fe’llari esa sifatdosh shaklida kelib, o‘tgan zamon ma’nosini ifodalagan. Sintaktik jihatdan ravishdosh fe’llar hol, sifatdosh fe’llar esa aniqlovchi vazifasini bajargan. Fe’llarning ushbu shakllari baytda ishq yo‘lidagi fano va baqo g‘oyalarini ochishda muhim rol o‘ynagan.

Ofati jonim ul sanam qoshi qarosini ko‘rung,
Ikki yuziga chulg‘anib zulfi siyohsini ko‘rung.

“Zulfu siyohsini ko‘rung” radifli g‘azalning birinchi baytida “ko‘rung” va “chulg‘anib” fe’llari ishtirok etgan. “Ko‘rung” fe’li buyruq-istak maylida bo‘lib, fe’lning asosiy shaklida qo‘llangan va undov, da’vat ma’nosini ifodalagan. “Chulg‘anib” fe’li esa fe’lning ravishdosh shakli bo‘lib, -ib qo‘shimchasi orqali yasalgan. Baytda fe’llar zamon jihatidan umumiylikni bildiradi. Sintaktik jihatdan “ko‘rung” fe’li kesim, “chulg‘anib” fe’li esa hol vazifasini bajargan. Ushbu fe’llar ma’shuqaning go‘zalligini jonli va ta’sirchan tasvirlashga xizmat qilgan.

Goh yorim qizil kiyib, qirmizi sochbog‘in solib,
Nozu karashmalar qilib, ahdi vafosini ko‘rung.

Ushbu baytda **“kiyib”, “solib”, “qilib”, “ko‘rung”** fe’llari ishlatilgan. “Kiyib”, “solib”, “qilib” fe’llari fe’lning ravishdosh shaklida bo‘lib, -ib qo‘shimchasi orqali hosil qilingan. Bu fe’llar harakatlarning ketma-ketligini bildiradi. “Ko‘rung” fe’li buyruq-istak maylida qo‘llanilgan. Sintaktik jihatdan ravishdosh fe’llar hol, “ko‘rung” fe’li esa kesim vazifasini bajargan. Fe’llar baytda ma’shuqaning noz-karashmali harakatlarini jonlantirib ko‘rsatgan.

Goh qoshini chu yo etib, kifrik o‘qi birlan otib,
Jodu ko‘zini o‘ynatib, makru balosini ko‘rung.

Bu baytda **“etib”, “otib”, “o‘ynatib”, “ko‘rung”** fe’llari qo‘llangan. “Etib”, “otib”, “o‘ynatib” fe’llari ravishdosh shaklida bo‘lib, harakatning faol va dinamik kechishini bildiradi. “Ko‘rung” fe’li buyruq-istak maylida kelgan. Sintaktik jihatdan

ravishdosh fe’llar hol, “ko‘rung” fe’li esa kesim vazifasida ishlatilgan. Ushbu fe’llar orqali ma’shuqaning joduli nigohi va harakati kuchli badiiy ta’sir bilan ifodalangan.

“Zulfu siyohsini ko‘rung” g‘azalida fe’llar asosan buyruq-istak mayli va ravishdosh shakllarida qo‘llanilib, g‘azalning tasviriyligi va hissiy ta’sirchanligini oshirgan. Fe’llar ma’shuqa go‘zalligini harakatda, jarayonda ko‘rsatishga xizmat qilgan bo‘lib, Mashrab lirikasiga xos jonlilik va dramatizmni yuzaga chiqargan.

Ey sabo, g‘ambodadurmen, bistarimni kavlama,
Chun shafaqoludaman, xokistarimni kavlama.

“Dardi sirimni kavlama” g‘azalining birinchi baytida **“kavlama”** fe’li ishtirok etgan. “Kavlama” fe’li buyruq-istak maylida, bo‘lishsiz shaklda qo‘llangan, buyruq mazmunidagi kesim vazifasini bajargan. Ushbu baytdagi fe’l radif vazifasini bajargan bo‘lib, oshiqning iltijosi va ichki iztirobini ifodalashga xizmat qilgan.

Har zamone Laylidin manga kitobatlar kelur,
Senki majnun bo‘lmasang, sardaftarimni kavlama.

Mazkur baytda **“kelur”, “bo‘lmasang”, “kavlama”** fe’llari qo‘llangan. “Kelur” fe’li hozirgi-kelasi zamon shaklida bo‘lib, davomiylikni bildiradi. “Bo‘lmasang” fe’li shart maylida, bo‘lishsiz shaklda kelgan. “Kavlama” fe’li buyruq-istak maylida ishlatilgan. Sintaktik jihatdan “kelur” fe’li kesim, “bo‘lmasang” fe’li ergash gap kesimi, “kavlama” fe’li esa bosh gap kesimi vazifasini bajargan. Ushbu fe’llar orqali shart va ogohlantirish ma’nosi kuchaytirilgan.

Eti do‘zax o‘rtanur aftodalarning ohidin,
Otashi hajrida kuygan mijmarimni kavlama.

Mazkur baytda **“o‘rtanur”, “kuygan”, “kavlama”** fe’llari qatnashgan. “O‘rtanur” fe’li hozirgi-kelasi zamon shaklida bo‘lib, jarayonni bildiradi. “Kuygan” fe’li sifatdosh shaklida, o‘tgan zamon ma’nosida qo‘llangan. “Kavlama” fe’li buyruq-istak maylida ishlatilgan. Sintaktik jihatdan “o‘rtanur” fe’li kesim, “kuygan” fe’li aniqlovchi, “kavlama” fe’li esa bosh gap kesimi vazifasini bajargan.

Lomakonning shahrini bu hu bila sayr ayladim,
Jabrayil, borg‘il nari, bolu parimni kavlama.

Bu baytda **“ayladim”, “borg‘il”, “kavlama”** fe’llari qo‘llangan. “Ayladim” fe’li o‘tgan zamon xabar maylida kelgan. “Borg‘il” fe’li buyruq-istak maylida, ijobiy shaklda ishlatilgan. “Kavlama” fe’li bo‘lishsiz buyruq fe’lidir. Sintaktik jihatdan “ayladim” fe’li kesim, “borg‘il” va “kavlama” fe’llari undov-buyruq mazmunidagi kesimlar vazifasini bajargan.

“Dardi sirimni kavlama” g‘azalida fe’llar asosan buyruq-istak, shart va ravishdosh shakllarida qo‘llanilib, lirik qahramonning iztirobi, ogohlantirishi va tasavvufiy holatini chuqur ochib beradi. Fe’llarning sintaktik jihatdan kesim, hol va aniqlovchi vazifalarida kelishi g‘azal mazmunining ta’sirchanligini oshirgan.

Xulosa. Qisqa qilib aytganda, shoir gazallarida fe’llardan mohirona foydalanadi. Uning -ib shaki o‘rniga -ub ko‘rinishini qo‘llashi, o‘tgan zaman qo‘shimchalari orqali kelasi zamonni ifodalashi va buyruq-istak maylidan mohirona foydalangaligi alohida e’tiborga loyiq. Mashrab g‘azallarida fe’llarning mahorat bilan qo‘llanilishi shoirning individual uslubini belgilovchi muhim vosita bo‘lib, u g‘azal janrining mazmuniy va estetik imkoniyatlarini yanada boyitadi. Ushbu tadqiqot Mashrab ijodini tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganishda fe’l turkumining o‘rnini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nargiza Erkaboyeva. O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami. “Yosh kuch” nashriyoti. Toshkent – 2023
2. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. “Universitet” nashriyoti. Toshkent – 2006
3. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/boborahim-mashrab-gazallar-murabbalar-muxammaslar.html